

YOSH FUTBOLCHILARNI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI MUSOBAQA SHAROITIDA BAHOLASH VA SAMALADORLIGINI ANIQLASH

Abdumutalov Azamat Akramjon o‘g‘li

Namangan Davlat Universiteti

E-mail: azamat.rakhmatullayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada 10-11 yoshli o‘yinchi­larning musobaqadagi texnik-taktik harakatlarini baholash va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Kalit so‘zlar: Texnik-taktik harakatlar, yosh futbolchilar, samaradorlik koeffitsenti, top uzatishlar

EVALUATE THE TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF YOUNG PLAYERS IN THE COMPETITION AND DETERMINE THEIR EFFECTIVENESS

Abstract: In this scientific article, experimental work was carried out to assess the technical and tactical actions of 10-11-year-old players in the competition and to determine their effectiveness

Key words: Technical-tactical action, young players, efficiency coefficient, ball passes

Mamlakatimizda millat genofondini shakllantirish, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash, ushbu jarayonlarni amalga oshirishda kafolatli vosita bo‘lmish jismoniy tarbiya va sportni yuksak cho‘qqilarga olib chiqish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi turar joylarida, jumladan mahallalarda istiqomat qilayotgan maktab o‘quvchilarini yoshligidan sportga jalb qilish masalasi hozirgi

kunda eng dolzarb masalalardandir. Albatta aholini ko‘p qismini sportga qamrab olishda futbolni o‘rni va roli kattadir [1, 2].

Yurtimiz sportini yuqori marralarga olib chiqish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rinni egallash, sportchilarimizni har tomonlama tayyorgarliklarini oshirishda mamlakatimiz Prezidenti va Hukumatimiz tomonidan ko‘plab me‘yoriy hujjatlar hayotga tatbiq qilib kelinmoqda.

Yosh sportchilar tizimini tayyorlashda va ularning jamiyatda muhim o‘rin tutishida bolalar maxsus sport maktablari, bolalar bilan sport ishlarini boshqaruvchi va bajaruvchi sport to‘garaklari katta ahamiyatga egadir [4].

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Texnik tayyorgarlikni yuqori saviyaga olib chiqmasdan yosh futbolchilarni ushbu sport turiga moslashtirish mumkinmas albatta [5].

Ushbu paragrafning maqsadi. Yosh futbolchilar musobaqa faoliyatini o‘rgangan holda ularning texnik-taktik harakatlari sonini va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Hozirgi kunda yosh futbolchilarni tayyorlash va ular mashg‘ulotlarini tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki bu sport zaxiralarini tayyorlashda eng muhim omil bo‘lib hisoblanadi [4].

Yosh futbolchilarni tayyorlash, ular mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish, ko‘p yillik istiqbolli rejalar asosida tayyorlash bugungi zamon futbolining asosiy talablaridandir. Bolalar, o‘smirlar sporti bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari, shu jumladan, futbol bo‘yicha bir nechta ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, sport mashg‘ulotlarining nazariyasi va uslubiyati o‘quv qo‘llanmalar tayyorlangan, ya‘ni pedagogik va tibbiy-biologik yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar olib borilgan [4, 5].

Masalan, M.M. Shestakov yosh va yuqori malakali futbolchilarning o‘yindagi texnik-taktik harakatlarini taqqoslab ko‘rgan. Taqqoslash natijasida ikkala guruhning mashqlarni takrorlashi, qo‘llanilgan texnika va taktika harakatida juda katta farq borligini ko‘rsatgan [6].

Ko‘plab olimlar texnik tayyorgarlik – futbolda hozirgi zamon sport mashg‘ulotining eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir deb ta’kidlaganlar. Futbolchilarda to‘pni olib yurish texnikasi qanchalik yuqori bulsa, shunchalik futbolchining jismoniy va ijodiy imkoniyatlari oshadi. Oqibatda, futbolchilarning mahorati o‘sadi va u jamoaning yutuqqa erishish darajasini aniqlab beradi. Lekin, hozirgi zamon futboli mutaxassislardan mahoratli futbolchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini oshirishga asosiy e’tibor berishini talab qiladi [6, 7].

Texnikani mikdori sportchi tomonidan o‘yin davomida bajargan umumiy harakatlar soni, M.A. Godikning kuzatishlari shuni ko‘rsatdiki, yuqori malakali futbolchilarning umum-jamoaviy texnik-taktik harakatining (TTH) optimal miqdori 600-800 taga to‘g‘ri kelgan. Lekin bu ko‘rsatkich qanday raqib bilan o‘ynayotganligiga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan kuchliroq jamoaga qarshi o‘ynalsa, bu ko‘rsatkich o‘z-o‘zidan oshishi aniq. Chunki, asosan bunday vaziyatda o‘yin tizginini o‘z qo‘liga olinadi, katta tashabbusga erishish yo‘li bilan to‘p bilan muomala qilish vaqti ko‘payadi va o‘z-o‘zidan ITTH miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘sishi tabiiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Aksincha, o‘ziga nisbatan kuchli raqibga qarshi maydonga tushishganda aksari hollarda, tashabbus boy beriladi, to‘p bilan muomala qilish vaqti kamayadi va ITTH miqdoriy ko‘rsatkichlari pasayib 400-500 ITTH tashkil qilish mumkin [6, 7].

Musobaqa faoliyati vaqtida futbolchilarni TTH miqdori va samaradorligini baholash uchun telefon yoki diktafondan foydalangan holda qo‘yidagi texnik harakatlar yozib olinadi:

- to‘p uzatishlar (qisqa, o‘rta va uzoq masofaga);
- to‘pni olib yurish;
- to‘pga ilgari ega bo‘lish;
- raqibni aldab o‘tish;
- bosh bilan o‘ynash;
- bosh bilan zarba berish;
- oyok bilan zarba berish;
- standart vaziyatlarni bajarish.

So'ngra olingan ma'lumotlarni maxsus jadvalga har bir futbolchiga tegishli bo'lgan kataklarga tushirishadi.

Bu yerda shuni takidlash joizki, turli chiziq (himoya, yarim himoya, hujum) o'yinchilariga optimal samaradorlik koeffitsienti turlicha bo'ladi. Himoya chizig'idagi o'yinchilarni me'yoriy koeffitsienti bu 0,85 % ni tashkil etishi kerak.

Yarim himoyachilardan bu ko'rsatkich 0,75 % dan 0,85 % gacha tashkil qilishi mumkin. Hujumchilarda esa 0,68 dan 0,75 gacha tashkil qilishi mumkin. Bu tafovutlarni qo'yidagicha ta'riflash mumkin. Himoyachilar ko'pgina TTH o'z darvozalari yaqinida bajarishadi va raqiblar bu zonada nisbatan kamroq qarshilik ko'rsatishadi aksincha hujumchilarni raqibning darvoza yaqinidagi harakatlari katta qarshilik bilan kutib olinishi va bemaol to'p bilan hujumchilarga yo'l qo'yilmasligi bilan izohlanadi. Hujumchilarga to'pni olib yurish, raqibni aldash, to'p uzatish (ayniqsa oldinga) harakatlari qiyinroq bo'ladi.

Biz tadqiqotimizni Namangan shahrida joylashgan “**BO'SM №1**” jamoasida olib bordik (1-jadvalga qarang). Kuzatishlar davomida 8 ta o'yin nazorat qilindi. Nazorat olib borishlar davomida yosh futbolchilar tomonidan bajariladigan turli texnik-taktik harakatlar kuzatildi va natijalar qayd qilib borildi.

1-jadval

«**BO'SM №1**» (2011-2012 y.) futbolchilarini bir o'yindagi kuzatishlar natijalari. O'yin Namangan shahrida bo'lib o'tgan. «**BO'SM №1**» 2:1 «**BO'SM №2**» (12.08.2021)

To'p uzatishlar				To'pni olib qo'yish	Raqibni albdab o'tish	To'pni olib yurish	Darvozaga zarba berish	Jami TTH	Samaradorlik koeffitsienti
Orqaga	yonga	oldinga	harakatdagiga						
+2	+5	+4-1	+5-1	+3-2	+2	+3	+2-1	31	0,83
+3	+4	+5-3	+2	+2-1	+2-1	+2	+1	26	0,80
+4	+9-1	+8-3	+4-3	+2-2	+3-2	+2-1	+1	45	0,73

+3	+6-1	+7-4	+3-2	+3-2	+3-2	+2	+1-1	40	0,70
+4-1	+7-2	+6-5	+5-5	+3-2	+3-2	+3-1	-	49	0,63
+4	+6	+9-5	+5-5	+4-3	+3-1	+4-2	+1	52	0,69
+4-1	+9-2	+7-4	+3-4	+3-2	+2-3	+5	-	49	0,67
+4	+8-3	+5-4	+5-3	+5-3	+3-3	+6	-	48	0,75
+2	+6-1	+6-4	+4-2	+3-3	+3-2	+4-1	-	41	0,68
+3	+3-2	+4-2	+3-2	+4-3	+2-3	+4-1	-	36	0,64
+2	+4-1	+3-3	+4-3	+3-1	+2-2	+5-1	-	34	0,67
+1	+3	+3-1	+2-2	+3	+2-1	+3	-	21	0,81
-	+3-1	+2-2	+2-1	+2-2	+2-1	+2	-	20	0,65
+1	+2	+3-1	+2-1	+3-1	+2	+3	+1	20	0,85
+36- 2	+75- 14	+72- 42	+49- 33	+43- 27	+34- 23	+48- 5	+7-2	512	0,71

Jadvalda yosh futbolchilar tomonidan bajarilgan TTHlarni natijalari ko‘rsatib o‘tilgan (1-jadvalga qarang). Natijalarni tahlil qilib o‘tadigan bo‘lsak, quyidagilarni aytib o‘tish mumkin. Futbolchilar o‘rtacha o‘yin davomida 512 ta texnik-taktik harakatni amalga oshirishdi. Bu texnik-taktik harakatlarni 364 tasi samarali yakun topdi va 148 ta texnik-taktik harakat samarasiz tugallandi. Umumiy samaradorlik koeffitsienti 0.71% ni tashkil qilgan. Orqaga to‘p uzatishlar o‘yin davomida 38 marotaba qo‘llanilgan va bu harakatlardan 2 ta xato to‘p uzatish hollari kuzatilgan. Samaradorlik koeffitsienti 94,7% erishildi. Yonga to‘p uzatishlar o‘yin davomida 89 marta qo‘llanilgan. Ulardan 75 tasi to‘g‘ri bajarilgan bo‘lib, 14 ta to‘p uzatish noto‘g‘ri bajarilgan. Samaradorlik koeffitsienti 84,2 % ni tashkil qilgan. Oldinga to‘p uzatishlar boshqa turdagi to‘p uzatishlarga qaraganda ko‘proq kuzatildi. O‘yin davomida o‘rtacha 114 marotaba oldinga to‘p uzatilgan. Samaradorlik koeffitsienti 63,1 % tashkil etdi. 114 ta to‘p uzatishdan 42 ta to‘p uzatish aniq o‘yinchiga yetib bormagan.

Harakatdagi o‘yinchiga to‘p uzatishlar nisbatan kam foydalanilgan. Ular soni 82 marta bo‘lib bundan ko‘proq himoyachilarlar foydalangan. Ulardan 49 ta aniq amalga oshirilgan, 33 ta esa noaniq amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 59,7% ni tashkil etdi. O‘rtacha har to‘pni olib yurish texnik-taktik harakatidan futbolchilar 53 marta foydalanishgan bo‘lib, samaradorlik ko‘rsatkichi 90,5% ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichni me‘yoriy ko‘rsatkich deb hisoblasa bo‘ladi.

Raqibni aldab o‘tish texnik harakatini o‘yin davomida 57 marta bajarishgan va ulardan 34 urinish samarali yakun topgan, 23 ta urinish esa noaniq amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 59,6% tashkil etdi. Bu texnik usulni amalga oshirishda futbolchilardan bir qancha tayyorgarlik sifatlarini rivojlanganligini talab qilinadi. Futbolchi yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, tezlik kuch sifatlarini yaxshi rivojlanganligi va driblinga ega bo‘lishi ahamiyatli hisoblanadi. Futbolchilar o‘yin davomida to‘pni olib qo‘yish texnik-taktik harakati 70 marta ishlatishgan. Ulardan 43 ta harakat aniq, bajarilgan va 27 ta harakat noaniq, amalga oshirilgan. Samaradorlik koeffitsienti 61,3% ni tashkil qilgan. Futbolchilar o‘rtacha o‘yin davomida 9 marta darvoza tomon zarba berishga urinishgan. Zarbalarning 7 tasi aniq nishonga yetib borgan va 2 ta zarba noaniq bo‘lgan. Samaradorlik koeffitsienti 77,7 % ni tashkil qilgan.

Yosh futbolchilarning darvozaga yo‘llagan zarbalarini o‘rganish maqsadida «**BO‘SM №1**» futbolchilari bilan bo‘lgan uchrashudidagi natijalarga to‘xtalib o‘tsak (2-jadvalga qarang).

2-jadval

«BO‘SM №1» futbol jamoasini «BO‘SM №2» futbol jamoasi bilan bo‘lgan uchrashudidagi darvozaga berilgan zarbalar

№	Bosh bilan berilgan zarbalar		Samaradorlik koeffitsienti %	Oyok bilan berilgan zarbalar		Samaradorlik koeffitsienti %	Jarima maydoii ichida		Samaradorlik koeffitsienti %	Jarima maydoii tashqarisida		Samaradorlik koeffitsienti %	umumiy soni Samaradorlik koeffitsienti %
	+	-		+	-		+	-		+	-		

I bo‘lim	1	-	100	3	0	100	4	0	100	1	0	100	4	100
II bo‘lim	1	-1	50	2	-1	66,6	2	-1	66,6	1	0	100	5	60
O‘yin davomi da	2	1	66, 6	5	1	83,3	6	1	100	2	0	50	9	77,7

Berilgan 9 ta zarbani 7 tasi jarima maydoni ichida yo‘llangan. 2 ta zarba jarima maydoni tashqarisidan amalga oshirilgan. Jarima maydoni ichidagi harakatlarda samaradorlik koeffitsienti 83,3% ni tashkil kildi. Jarima maydoni tashqarisidan yunaltirilgan zarbalar samaradorlik koeffitsienti esa 100% ni tashkil qildi. Ya’ni yo‘naltirilgan 2 ta zarba ham aniq bo‘ldi.

Birinchi bo‘limda darvoza tomon yo‘llangan zarbalarning samaradorlik koeffitsienti 100% ni tashkil qildi. Ikkinchi bo‘limda esa biroz xatolarga yo‘l qo‘yilib, samaradorlik ko‘rsatkichi birinchi bo‘limdagi ko‘rsatkichlardan pastroq natija qayd etdi.

Maxsus adabiyotlar shuni ko‘rsatdiki, futbolchilarni musobaqa faoliyatini nazorat qilish futbolchilarni tayyorlash jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Individual texnik-taktik harakatlarni baholashni eng ommalashgan va qulay usuli bu pedagogik tahlildir. Tahlil natijalariga asoslanib, futbolchini turli tayyorgarlik tomonlariga maqsadli ta’sir etsa bo‘ladi. Yosh futbolchilarni musoboqa faoliyatini o‘rganish jarayonida, ular tomonidan bajariladigan bir qancha texnik harakatlar kuzatildi va olingan natijalar tahlil qilindi.

Kuzatishlardan shu narsa aniq bo‘ldiki, yosh futbolchilaryuqori malakali futbolchilarga nisbatan ancha barqarorsiz o‘yin olib borishadi. Bu holat bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik tomonlari hali yetarli darajada

rivojlanmaganligi;

- Yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi yuqori darajada emasligi;
- Yosh futbolchilarning psixologik tayyorgarligi yuqori emasligi;

Musobaqa faoliyati davomida yosh futbolchilar orqaga va yonga to‘p uzatish samaradorligi oldinga to‘p uzatganga qaraganda 20-25% samaradorlik koeffitsienti yaxshi ekanligi kuzatildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, raqibni aldab o‘tish va oldinga to‘p uzatishni ko‘proq mashq qilish kerak.

Agarda yuqori malakali futbolchilar o‘rtacha o‘yin davomida 650-900 ta texnik-taktik harakatlarni bajarishsa, yosh futbolchilar esa 440-680 ta TTH larni bajarishlari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармони. “Халқ сўзи” газетаси 06.03.2018 й. 1-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистонда футболни янада ривожлантириш тўғрисида” ги қарори. “Халқ сўзи” газетаси. 17.03.2018 й. 1-бет.
3. Лексаков А. Теория и методика футбола. М., РГУФК, 2004. 76-77-ст.
4. Нуримов Р.И. Футбол дарслик. Тошкент 2013. 198-бет.
5. Шестаков М.М. Футбол: Структура и критерии эффективности индивидуальной соревновательной деятельности игроков разных амплуа: Учебно-методическое пособие. - Краснодар, 1994. – 27 с.
6. Годик М.А. Комплексный контроль М.: ФиС 1985 год 180 стр.
7. Годик М.А. Совершенствование физической подготовленности спортсменов. М.: СААМ, 1995 г. 136-165 стр.